
Akademik litseylarga kirish imtihonlari uchun ruxsatnoma berish boshlandi

Xabar berganimizdek , akademik litseylarga kirish **test sinovlari 2022-yil 22-avgust kuni** Davlat test markazi tomonidan maxsus belgilangan hududlarda o'tkaziladi.

Test sinovlari **bir smenada o'tkazilib, soat 8:00 boshlanadi.**

Akademik litseylarda 1-bosqich dastlabki yozma imtihonlardan muvaffaqiyatli o'tgan o'quvchilar quyidagi tartibda **test sinovlariga kirish ruxsatnomasini:**

1) litsey.edu.uz saytidagi **shaxsiy kabinetiga o'zining login va paroli bilan** kirgan holda yuklab olishi;

2) yoki hujjat topshirgan **akademik litseydan** ham bevosita borib olishlari mumkin.

Test sinovlari ta'lim yo'nalishiga **mos 2 ta fan va intellektual qobiliyat darajasi (IQ) ni aniqlash bo'yicha o'tkaziladi.**

Bunda talabgorlarga **har bir fandan 20 tadan jami 60 ta test topshirig'i** va ularni bajarish uchun javoblar varaqasini to'ldirish bilan birga **110 daqiqa vaqt ajratiladi.**

Test sinovlarida to'plash mumkin bo'lgan **maksimal ball - 146 ball** bo'lib, ta'lim yo'nalishiga mos fanlar bo'yicha har bir to'g'ri javob uchun **3,1 balldan (jami 124 ball)**, intellektual qobiliyat darajasi (IQ) ni aniqlash bo'yicha esa **1,1 balldan (jami 22 ball)** beriladi.

Talabgorlardan test sinovi o'tkaziladigan hududga belgilangan vaqtdan kamida 1 soat oldin **shaxsini tasdiqlovchi hujjat va test sinovida ishtirok etish uchun ruxsatnoma** bilan kelishlari so'raladi.